



# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-sentabr 2019 yil


## RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **9,4 trln. so'm**, o'sish sur'ati **2,5 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **102,7 %** ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **100,0 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **104,3 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 9 376,5 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,5%ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 9 157,0 mlrd.so'mni (102,6%), o'rmon xo'jaligi –165,8 mlrd.so'mni (102,3 %), baliq xo'jaligi –53,5 mlrd.so'mni (91,0 %) tashkil qildi.

1-diagramma


## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd. so'm)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (105,5 foiz), Zomin (104,8 foiz) tumanlari va Jizzax shahrida (104,6) kuzatildi. Zarbdor (100,5 foiz), Paxtakor (99,1 foiz), Mirzacho'l (97,7) va Do'stlik tumanlarida (96,1 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

2-diagramma

### Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Jizzax viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Baxmal tumanining ulushi 16,1 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, G'allaorol va Zomin tumanlari mos ravishda 14,6 foiz va 11,1 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Jizzax shahrida (2,5 foiz) va Yangiobod tumani (2,9 foiz) qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 100,0 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 104,3 foizni tashkil qildi.


## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 77,0 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,9 %i – fermer xo'jaliklariga, 1,1 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

3-diagramma

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, %da



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3 156,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,0 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 34,7 %ni tashkil qildi.



1-jadval


### 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	553,8	119,9	520,4	113,5	17,2	72,8	16,3	401,7
Kartoshka	43,6	104,9	5,1	105,6	38,4	104,8	100,0	105,3
Sabzavotlar	296,8	103,7	117,1	107,2	177,6	100,7	2,1	293,8
Poliz	163,7	120,4	78,0	145,5	84,5	104,1	1,2	105,2
Meva va rezavorlar	58,9	106,6	20,9	114,3	37,6	102,8	0,4	111,1
Uzum	20,2	101,1	5,3	96,2	14,9	103,0	0,03	107,1

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar – sentabr oylarida 506 467 tonna (114,4 foiz) boshoqli don ekinlari, shundan 480 187 tonna (114,7 foiz) bug'doy, 296 821 tonna (103,7 foiz) sabzavotlar, 58 926 tonna (106,6 foiz) meva va rezavorlar, 43 622 tonna (104,9 foiz) kartoshka, 163 714 tonna (120,4 foiz) poliz, 20 234 tonna (101,1 foiz) uzum mahsulotlari yig'ib olindi.

4-diagramma


### Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi %da



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 88,1 foizi, sabzavotlarning 59,8 foizi, oziqbop polizning 51,6 foizi, meva va rezavorlarning 63,8 foizi, uzumning 73,6 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 94,0 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


### Don ekinlari (ming t)



### Kartoshka (ming t)




### Sabzavotlar (ming t)



### Poliz (ming t)



## Mevalar va rezavorlar (ming t)



## Uzum (ming t)



## Chorvachilik



2019 yilning yanvar-sentabrda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5 933,0 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,3 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 65,3 %ni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 154,1 ming tonna go'sht (4,4 %ga), 458,2 ming tonna sut (3,0 %ga), 229,9 mln.dona tuxum (3,5 %ga), 0,3 ming tonna jun esa (3,6 %ga), 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan ko'p ishlab chiqarildi.

## 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	154,1	104,4	2,1	163,9	151,1	103,9	1,0	107,7
Sut, ming t	458,2	103,0	5,1	112,0	452,2	102,9	0,9	105,5
Tuxum, mln. dona.	229,9	103,5	8,2	238,3	149,6	96,3	72,1	114,0
Jun, ming t	3,4	103,6	0,3	134,5	3,0	101,0	0,2	102,0
Qorako'l, ming dona.	3,0	114,9	2,3	113,9	0,2	0,0	0,7	107,3
Pilla, ming t	0,6	108,8	0,6	105,4	-	-	0,05	183,2

6-diagramma

### Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, %da






Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 98,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 98,7 %i, tuxumning 65,1 %i, junning 85,7 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l terining 76,2 %i esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

7-diagramma

### Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 873,6 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 256,8 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 129,0 ming boshga, parrandalar – 3 474,5 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 6,0 ming boshga (0,7 %ga), shu jumladan sigirlar – 3,3 ming boshga (1,3 %ga), qo'y va echkilar – 77,7 ming boshga (3,8 %ga), parrandalar – 320,7 ming boshga (10,2 %ga) ko'paydi.

3-jadval

### 2019 yilning 1 oktabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	873,6	100,7	36,6	111,5	823,4	100,1	13,6	112,9
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	256,8	101,3	10,6	106,1	242,9	100,6	3,3	157,8
Qo'y va echkilar	2129,0	103,8	337,7	108,9	1599,4	100,1	191,8	134,5
Parrandalar	3474,5	110,2	280,1	88,6	1988,7	101,0	1205,7	138,6


2019 yilning 1 oktabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,9 %i fermer xo'jaliklariga, 75,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 9,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 8,1 %i fermer xo'jaliklariga, 57,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 34,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## 2019 yilning 1 oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shundan, sigirlar (ming bosh)






Qo'y va echkilar (ming bosh)






Parrandalar (ming bosh)



## Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 71-230-83-49  
• 71-230-83-53